

«ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA TASHKILLASH YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR»

Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davrlat o'zbek tili va adabiyoti

Universitetining ona tili va adabiyot ta'limi kafedrası o'qituvchisi.

ANNATATSIYA

Ushbu uslubiy tavsiyada ona tili - savodxonlik fani ekanligi va o'quvchiilarning savodxonligini oshirishda ahamiyatga molik bo'lgan usullar haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: "Imlo lug'ati", imloviy xatolar, ishoraviy xato, uslubiy xato, to'g'ri yozish qoidalari, til va bo'g'iz tovushlari, jarangli va jarangsiz undoshlar.

"МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ"

Бердыева Нилуфар Ибодуллаевна

Преподаватель кафедры родного языка и литературного образования Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

АННОТАЦИЯ

В данной методической рекомендации есть мнение о том, что родной язык — это наука о грамотности и о методах, имеющих значение в повышении грамотности учащихся.

Ключевые слова: «Орфографический словарь», орфографические ошибки, знаковая ошибка, стилистическая ошибка, правила правильного написания, язык и гортанные звуки, звонкие и глухие согласные.

"METHODICAL RECOMMENDATIONS ON THE ORGANIZATION OF MOTHER LANGUAGE AND LITERATURE LESSONS ON THE BASIS OF MODERN METHODS"

Berdyeva Nilufar Ibodullayevna

Teacher of the Department of Mother Language and Literature Education of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

ANNOTATION

In this methodical recommendation, there is an opinion about the fact that the mother tongue is a science of literacy and the methods that are important in improving the literacy of students. Key words: "Spelling dictionary", spelling errors, sign error, stylistic error, correct writing rules, tongue and throat sounds, voiced and unvoiced consonants.

Kitob o'qish avval jaholatdan, keyin safolat (g'am-qayg'u)dan,
keyin esa falokatdan qutqaradi...
(Hikmatlar xazinasi risolasidan)

Til — har bir millatning qalbi, g'ururi, mustaqillik belgisi, kelajagi. Tilsiz hech bir millat to'laonli xalq bo'la olmaydi. Usiz Vatanning erki yo'q. Shu kahkashonda o'zbek tili ham

millatimizning faxri, dunyo tan olishiga hissa qo'shgan aloqa vositasidir. Til – inson qalbining ko'zgusidir. Unda nafaqat inson qalbi, balki o'sha xalqning o'tmishi, buguni, kelajagi, madaniyati va boshqa bir qancha jihatlar ham aks etib turadi. Bejizga biz til so'ziga ona so'zini egizak qilib aytmaymiz. Shuning uchun ham biz uni onamizdek qadrlashimiz, e'zozlashimiz, saqlashimiz va kelajak avlodga sof holda etkazishimiz lozim. Til insonning libosidir. Bu libosni qanday kiyish har bir insonning o'ziga bog'liq. Ba'zi insonlar oddiy libosni ham go'zal qilib, yarashtirib kiyadi. Ba'zi insonlarda esa har qanday go'zal libos o'z ko'rkini yo'qotadi. Til – qalb tarjimoni. Chunki har bir so'z, eng avvalo, qalb torlarida chertiladi. So'ngra so'zlarda jilolanib tinglovchiga yetkaziladi

O'quvchilarning yo'l qo'yan xatolarini biz og'zaki nutqda emas, balki yozma nutqda matn, insho, diktant, bayon kabi ijodiy ish va sinov nazorati davomida yoki oddiy sinf darslarida mashqlarni yozish davomida ko'rishimiz, xulosali fikrga kelishimiz mumkin. Mashq so'zini "mashiq" tarzida yozishlari yoki harf so'zini "harif" tarzida oddiy, ammo qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yan holda yozayotganliklarini guvohi bo'lamiz. Avvalo, tilshinoslikdagi qonun-qoidalarini biz o'quvchilar ongiga har kuni, har soatda singdirib borishimiz kerak. Xoh u ona tili darsi bo'lsin, xoh matematika yoki fizika. Oktabr – ona tili va adabiyot, Davlat tili fan oyli hisoblanadi. Ana shu oyni savodxonlik oyli deya atab hamma jarayonda qo'llash, og'zaki nutqda bo'lsa ham, yozma nutqda bo'lsa ham xatoliklarga qarshi amaliy jihatdan ishlar olib borilsa, albatta, ijobiy natijalarga erishiladi. Savodxonlikni oshirishda badiiy asarlarning o'rni ham muhim. O'quvchiga badiiy asar yoki adabiyot darsligi asosida hikoyalarni, qissa va romanlardan olingan parchalarni o'qish uchun berayotganda imloviy jihatdan so'zlarni yozilishi, gap bo'laklarining joylashivi, fikr-mulohazalarning teranligiga e'tiborli bo'lib o'qishni ogohlantirish va uqtirib borish kerak. O'zbek tili (ona tili) fanining eng og'riqli nuqtasi bu barcha insonlarni adabiy til qonun-qoidalarini bilmasdan x chuqur til orqa undoshi va h bo'g'iz undoshini farqlay olmasligi, talaffuzda nimani aytsa, shuni yozib qo'yishi va gaplarni yozishda xatoliklarga yo'l qoyayotgani achinarli hol. Boshqa tillardan o'zlashgan "карочи, "опшим" so'zlarini qo'shib, madaniyatlar qatorida o'zini ko'rayotgani ham o'zbek xalqining og'riqli nuqtasi hisoblanadi. Bu xatolarni takrorlanmasligi uchun barcha pedagoglar bir yoqadan bosh chiqarib, bir tan-u bir jon bo'lsa, bu kabi muammolar o'z yechimini topadi. Chuqur til orqa undoshi x va bo'g'izda hosil bo'luvchi h tovushini boshlang'ich ta'limdan talaffuz qilishga alohida e'tibor berilgan holda o'rgatilsa, muammoning dastlabki nuqtasini oldini olish boshlanadi. Rus tili, ingliz tili kabi fanlarni o'tish va o'rgatish mobaynida o'z ona tilimizga aralashtirmasdan o'rganish zarurligini ham yoshlikdan uqtirilsa, o'quvchi jinoyat qilgan inson sifatida o'zini tutib, bu xatolarni takrorlamaydi. Ona tili darslari mobaynida o'quvchilarga yuqorida aytilgan muammolarga qarshi kurashuvchi zamonaviy o'yinli metodlarni qo'llash orqali oson va tajribalarga suyanan holda bartaraf etish mumkin. Dars avvalida lug'at diktant yozdirish, "To'g'ri-noto'g'ri" metodi orqali x va h tovushlarni farqlashga oid so'zlarni qo'llash zarur. "To'g'ri-noto'g'ri" metodi savollar tarzida beriladi yoki tarqatma shaklida yozib qo'llariga berish bilan amalga oshirilishi ham mumkin.

1. Hayot so'zi bo'g'iz undoshi bilan talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. To'g'ri. 2. Xalq so'zi bo'g'iz undoshi bilan talaffuz qilinadi hamda shunday yoziladi. Noto'g'ri. Shu tartibda o'yin shaklida tez-tez aytiladi.

"Maksimal xotira" o'yini. Siz ushbu o'yindan yuqori sinf o'quvchilarda yodlash va diqqatni jamlash ko'nikmalarini hosil qilish uchun foydalanishingiz mumkin.

O'qituvchi "Men ta'tilga ketyapman va olib kelaman" kabi jumlaning yarmini doskaga yozadi va ikkinchi yarmi uchun bo'sh joy qo'yadi.

Birinchi o'quvchi ro'yxatga biror narsani qo'shadi, masalan, "Men ta'tilga ketyapman, itimni olib kelaman". Shundan so'ng, har bir o'quvchi o'zinikini kiritishdan oldin barcha oldingi boshqa o'quvchilar qo'shgan qo'shimchalarni takrorlaydi.

Bu o'yinni hamma fan darslarida qo'llash mumkin! Bu o'quvchilarda mavzuga oid ma'lumotlarni tez yodlab qolishga yordam beradi!

"Mo'jizalar maydonchasi" o'yini. O'quvchilarning o'rniga qarab uch guruhga ajratib olinadi. Har bir guruhga alohida o'tilgan mavzu yuzasidan savol beriladi. Har bir guruhdan savolga birinchi bo'lib javob bergan uch o'quvchi doskaga taklif qilinadi.

O'qituvchi doskaga o'tilgan mavzuga aloqador atamaning harflariga teng katakchalar chizadi. Birinchi chiqqan o'quvchi o'zi istagan katakchaning harfini ochadi. Agar birinchi ochilgan katakchadayoq qaysidir o'quvchida javob tayyor bo'lsa javobni aytishi, yoki keyingi o'quvchi boshqa bir katakchani ochib davom ettirishi mumkin.

Harflarni ochishda o'quvchilarga savol berilmaydi, o'quvchi navbat bilan o'zi istagan katakchani ochishni so'raydi. Atama topilgunga qadar o'yin davom ettiriladi! Atamani birinchi bo'lib topgan o'quvchi g'olib hisoblanadi!

"Bo'g'in" o'yini. O'quvchilarning tezkor fikrlashlari, so'z boyligini aniqlash maqsadida bu o'yin o'tkaziladi. Bunda birinchi aytilgan so'zning oxirgi bo'g'imi keyingi so'zning birinchi bo'g'imiga to'g'ri kelishi kerak bo'ladi. Misol uchun, Maktab – tabrik, rassom – somsa va hokazo.

"Maqol" o'yini. O'quvchilarni rag'batlantirish va maqollarni bilish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. O'qituvchi o'yin shartini aytmagan holda talabgor o'quvchilarni doskaga taklif etadi. O'quvchilar istaganicha doskaga chiqishi mumkin. O'qituvchi birinchi o'quvchiga bejirim karopka beradi, o'quvchi maqol aytib uni sherigiga uzatadi. Karopkani olgan o'quvchi maqol aytib yana keyingi sherigiga tutqazadi. Maqol aytolmagan yoki aytilgan maqolni takrorlagan o'quvchi o'rniga o'tiradi. O'yin bitta o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Oxirgi qolgan o'quvchi g'olib bo'lish uchun maqol aytadi va karopkani ochib ichidagi o'qituvchi tayyorlagan sovg'aga ega chiqadi.

"Nutqni tozalash" metodini yuqori sinflarda qo'llash kerak, chunki boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni ko'proq shu o'quvchilarning aytilishlarini kuzatamiz. Карочи, опшим, уже, давно, ужест (iloji boricha bu so'zlardan 15-20 tasini berish kerak, chunki o'quvchining izlanishiga asos bo'lsin) kabi so'zlar o'rnida qaysi so'zlarni qo'llash mumkin. O'quvchilarga shu so'zlarni bir necha sinonimlari bilan birga topish topshirig'i beriladi. O'quvchilar izlanib, qiyinchiliklar bilan shu so'zlarni topgandan so'ng ona tilisini qay tarajada kengligini va boy til ekanligini his qiladi va o'z xatosini anglab yetadi. O'quvchilar nazorat ishi yozishgandan so'ng, "Nazorat ish tahlili" yoki "Xatolar ustida ishlash" kabi mavzular orqali yozgan bayon, insho, matn, diktant yoki taassurotlari orqali yo'l qo'yan xatolarini chuqur anglashi kerak. Xato yozilgan so'zlar asosida "Zanjir", "Xatoni top" kabi interfaol metodlar orqali takrorlash va gaplar tuzish, og'zaki holda savol-javob o'tkazish ham zarur. Har bir ortiqcha soniyalarda savodsizlikka qarshi amaliy ishlarni tashkillash kerak.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, umumta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda, o'quvchilarni savodxonlik darajasini oshirishda hamma pedagoglar bir tan-u bir jon bo'lishi, uni faqat ona tili va adabiyot o'qituvchilari ixtiyoriga tashlab qo'ymay harakat qilinsa, albatta, yaxshi natijalarga erishiladi. Bundan tashqari dastlab o'quvchilarga harf o'rgatishda, tovushlarni farqlashda jiddiy e'tiborli bo'lish, ota-onalar bilan hamkorlikda savodsizlikka qarshi samarali ishlar olib borish zarur. Shundagina natija Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlagani kabi bo'ladi: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "Noshir" nashriyoti, 2009, 351.
2. Yo'ldosheva D. Ashurbayeva R. Ona tili ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. -T.: Turon Zamin Ziyos. 2018.
3. Internet materiallari: <http://go.mail.ru/searchi?>.